ALISHER NAVOIYNING “FAVOYID UL- KIBAR “ DOTONIDAGI TARJE’BANDIDA “ MAY” TIMSOLI

Ochiltoshova Kumushoy A’zamovna

Samarqand davlat universiteti Kattaqo’rg’on filiali talabasi

Annotasiya: Navoiy tarjibandlarida may bu oshiq dilidagi kuchli ish va zavq timsoli sifatida talqin qilinadi.

Kalit so’zlar: May, jom, soqiy, mug’bacha, ishq.

Navoiy ijodi misli dengizdir, agar u haqida tasavvurga ega bo’lmagan odam uning asarlarini mutolaa qilsa undagi ma’noni, go’zallikni to’la his qilmaydi. Bilamizki Navoiy ramzlardan unumli foydalanadi, uning hayotbaxsh g’oyalari, zohiriy va botiniy ma’nolar uyg’unlashuvidan yaralgan asarlarini bir biridan ayro tushunib bo’lmaydi. Navoiy tarje’bandlarida ham zohiriy ma’nolar bilan birga asl botiniy g’oyalar ham o’z ifodasini topgan. “G’aroyib us- sig’ar” va “Favoyid ul- kibar” asarlaridagi tarje’bandlarda may timsoli yetakchi o’rin tutadi.

Kim agar soqiyi mahvash tutsa

May quyoshini, to‘la aylab jom.[Favoyid ul- kibar, 339-b.]

Bu baytda qo’llanilgan “may”, “soqiy”, “jom” so’zlarini yuzaki tushunilsa Navoiy insosnlarni ichkilik ichishga undayotgandek tuyulmaydimi? Bilamizki Navoiy din borasida ancha bilimga ega, maydan yiroq inson. U mayni “falokatlar onasi” deb hisoblagan. Bu baytdagi “soqiy” bu - ustoz, bizga hayotda to’g’ri yashashni, inson ko’nglini hira qiluvchi va quvonch bag’ishlovchi paytlarda qanday inson bo’lishni o’rgatuvchi inson. “May”- ilohiy ishq- donishmandlik, oshiqning mashuqaga bo’lgan ishqidagi kuchli zavq, quvonch timsoli. “Jom”- ko’ngil ramzi. Ustozning bizga bergan sabog’i, nasihatlari ko’nglimizni yoritishi bu yerda ochiqlanyapti.

Yana mug‘ dayrig‘a kirdim sarmast,

May tut, ey mug‘bachayi bodaparast![Favoyid ul- kibar, 340-b.]

Bu yerda qo’llanilgan “mug’ dayri”- ma’rifat, ma’naviy poklik maskani va shoir bu yerga “sarmast”- shu poklikka to’la holda kirib o’zidan ko’ra ko’proq ishqqa ega bo’lgan “mug’bachadan” unga yana “may” quyib berishini so’ramoqda.

Kim, sanga bu kelishu ketmakdin

Ayshu ishrat xud emas erdi murod…

Oqibat buyla parishonlig‘da,

May bila mug‘bachani aylab yod.[Favoyid ul- kibar, 341-b.]

Navoiy 1- baytda o’z fikrini ochiq aytgan, bu hayotga kelib ketishdan maqsadimiz ko’ngilxushlik emas edi. Oqibat haqida ta’rif ketar ekan, Navoiy chin oshiq faqatgina ishqdan sarmast holda emas, balki u yonida bo’lmaganligida ham uni yod etish ya’ni Allohni va uning mehrini doimo his qilib bunga shukrona keltirishimiz va duoda bo’lishimiz aytilgan. Aslida bu hayotdaligimizning asl mazmuni ham shudir.

Tutubon uylaki, garduni sog‘ar,

Men bo‘lub ul may ila mastu xarob…

K-ey xumor ilgida rindi ojiz,

Seni maxmurlug‘ etmish betob.

Yana mug‘ dayrig‘a kirdim sarmast,

May tut, ey mug‘bachayi bodaparast![Favoyid ul-kibar, 346-b.]

Lirik qahramon dunyo unga tutqazgan “may” uni “mastu xarob" qilgani, bu ishqqa bo’lgan xumorida “rindi ojiz”ligi uni bu “ilohiy ishq” betob qilanini arz qiladi. Lirik qahramon bu ishqda qancha qiynalmasin o’z yo’lida sodiq turishini va yana “mug’ dayri”ga kirishini va o’z ishiqga yanada ko’proq ishq qo’shishini so’raydi.

Demak Navoiyning bu tarje’bandida keltirilgan may obrazining turli xil ma’nolari va mayning turli vositalar sifatida qo’llanilishini ko’rdik. Umuman, Navoiyda may bir necha ma`no kasb etib, lirik qahramonning turlicha kayfiyatini ifoda qilsa-da, baribir, hammasining markazida inson va uning kechinmalari yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. TAT. 10 j-lik. 4-jild. Favoyid ul-kibar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
2. Navoiy asarlari lug’ati. – T.: Adabiyot va san’at, 1972.